Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, dars uchun tanlanayotgan usullar bola ongiga mos, berilayotgan bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan hamda murakkab mavzuni oson o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shuning barobarida, har qanday usullardan besamar foydalanish, tilimiz qonuniyatlarini buzish Ona tilimizga nisbatan hurmatsizlik sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Almamatov T., Yadgarov Q.M., Almamatova Sh.O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. – T.: 2013
2. Ashrapova T. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: 1984
3. Tolibova J. Pedagogik texnologiyalar. – T.: 2005



QAQAQALPAQ HÁM TÚRKMEN TILLERINDE ALMASIQLARDIŇ SEMANTIK ÓZGESHELIKLARI

Gilishtaganova Ogultagan Meretbaevna

Qaraqalpaq mámleketlik universiteti 1 kurs magistranti

Телефон: +998993822144

e-mail: gilishtaganovao88@mail.ru

Annotaciya: Túrkiy tillerinde almasiqlardı izertlegen alımlar haqqında sóz etilgen. Qaraqalpaq hám túrkmen tillerinde almasiqlardıń semantik ózgeshelikleri haqqında maǵlıwmat berilgen.

Gilt sózler: Almasıq, tyurkolog, bashqurt tili, túrkmen tilli, túrk tilli, ózbek tili, qaraqalpaq tili.

Túrkiy tillerdiń kópshiligindeki almasiqlar eski sózler. Olardıń yeski sózlerdiń qatnasına kiredi: tildiń tariyxıy rawajlanıwı basqıshlarında olardıń hár qıylı ózgerislerge ushırasıwı hám basqa sóz shaqaplarınıń ornına qollanıwı tilshi-ilimpazlardıń dıqqatın erteden-aq ózine tartqan. Sebebi, olardı izertlew arqalı tildiń tariyxıy grammatikalıq qubılısı hám rawajlanıw baǵdarlarına baylanıslı kóplegen maǵlıwmatlar alıwǵa boladı.

Almasiqlar – sóz shaqaplarınıń ishinde ózine tán ózgesheliklerge iye sóz toparı. Ol tildiń tariyxıy rawajlanıw basqıshlarında mánisi, seslik dúzilisi, morfologiyalıq dúzilisi jaǵınan bir qatar ózgerislerge ushırap kelgen. Bul ózgerisler xalqımızdıń jasaw jaǵdaylarına, tariyxıy sharayatlarına baylanıslı júzege kelgen. Sonlıqtan olardı izertlew arqalı xalqımızdıń tariyxıy boyınsha da baxalı maǵlıwmatlar alıwǵa boladı. Kóplegen tyurkologlardıń miynetlerinde túrkiy tillerdegi almasiqlar, olardıń ayırım mánilik toparları, etimologiyası salıstırmalı – tariyxıy planda izertlengen.

1959 jıllardan baslap túrkiy tillerdegi almasiqlar hár tárepleme izertlene baslandı. Asirese siltew almasiqlarına arnalǵan kóplegen miynetler jazıldı. Máselen: N.K.Dmitriev bashqurt tilindegi siltew almasiqların, F.A.Ashnin¹ túrkmen hám túrk tillerindegi siltew almasiqların, A.N.Kononov túrk hám ózbek tillerindegi almasiqlardı, A.Ibatov qazaq tilindegi almasiqlardı, A.Borjakov² túrkmen tilindegi almasiqlardı, I.Suyarov ózbek tilindegi almasiqlardı arnawlı izertledi.

Qaraqalpaq tilindegi almasiqlar eń dáslep N.A.Baskakovtıń miynetlerinde sóz etilip, onda almasiqlar mánisi boyınsha bes toparǵa bólip kórsetilgen. Olardıń sepleniwindegi ayırmashılıqlar, gáptegi atqaratuǵın sintaksislik xızmeti xaqında ayılǵan.

Qaraqalpaq tilindegi almasiqlar ótken ásidıń 70-jılları M.Shalekenova tárepinen arnawlı izertlewdi³. Ol qaraqalpaq tilindegi almasiqlardıń leksika-semantikalıq toparların, sintaksislik xızmetlerin sóz etip, almasiqlardı mánisi boyınsha 7 toparǵa bólgen hám olardı sepleniwindegi ózgesheliklerdi izertlegen.

Almasiqlar hár qanday tildiń sózlik quramında belgili orındı tutadı. Olardıń mánili sózlerdiń ornına almasıp qollanıladı, sonlıqtan da mánili sóz shaqaplarınıń qatarına kiredi. Almasiqlar qaysı sóz shaqabınıń ornına qollanılsa, sol sóz shaqabınıń grammatikalıq kórsetkishlerin qabullaydı hám onıń gáptegi sintaksislik xızmetin atqaradı. Biraq sońǵı izertlewlerde almasiqlardıń ayırıqsha mánige, yaǵnıy deytikalıq mánige iye bolıwın esapqa alıp, olardı óz aldına bólek sózler toparı sıpatında kórsetilmekte.

Almasiqlar mánili sóz shaqabı retinde erte dáwirlerden baslap adamlar arasındǵı qarım-qatnasta, jazba estelikler tilinde qollanılıp kiyatır. Olardıń semantikalıq ózgesheliklerine qaray toparlarǵa bóliniwi mánilik ózgeshelikleri tyurkologlar tárepinen izertlenedi.

Türkmen hám qaraqalpaq tillerinde almasiqlardıń semantikalıq hám grammatikalıq ózgeshelikleri eki tildiń ózara tásiri hám baylanısı nátiyesinde sózlerdiń jasalıwında hám qollanıwında kórinedi. Olar sóz shaqaplarınıń barlıǵında ushırasadı.

Sonlıqtan almasiqlar leksikalıq-semantikalıq hám grammatikalıq jaqtan mánili sóz shaqabı

¹ Ашнин Ф.Д. Указательные местоимения и их производные в азербайджанском, турецком и туркменском языках. Канд. диссертаций автореферат, М., 1958, 24 с.

² Боржаков А. Местоимения в современном туркменском языке. Канд. диссертаций автореферат, Ашхабад, 1964, 22 с.

³ J.Amansaryew. Türkmen dialektologiyasy. «Türkmenistan» neşirýaty Aşgabat 1970.



esaplanadi.

Qaraqalpaq hám túrkmen tilindegi almasıqlardıń semantikalıq ózgeshelikleri tómendegilerden ibarat.

Betlik almasıqlarınıń (at alışmaları) túrkmen hám qaraqalpaq tillerinde jazılıwı da, atalıwı da, qollanılıw orınları da birdey bolıp, tek fonetikalıq ózgeshelikler ushıraydı. Betlik almasıqları túrkmen tilinde qaraqalpaq tilindegi sıyaqlı menshiklik atlıqlardıń ornına qollanıladı.

Qaraqalpaq hám túrkmen tillerinde siltew almasıqları (górkezme alışmaları) semantikalıq jaqtan analiz etilip úyrenilgende bul almasıqlar arqalı kórsetilip atırған zattıń jaylasқан ornı boyınsha obyektge qatnasın bildiredi.

Soraw almasıqları eki tilde de qaysı da bolsa bir zattı, predmetti, onıń sapasın, muğdarın, sanın bildirip keledi. Bul almasıqlardıń túrkmen hám qaraqalpaq tillerinde qollanılıw ózgeshelikleri qaraqalpaq tiline salıstırғanıńda túrkmen tilinde olardıń sanınıń kópligi hám fonetikalıq ózgesheliklerdiń ushırasıwı. Máselen: kimiń-kimniń, náme-ne, haçan-qashan hám t.b.

Almasıqlardıń bul túri eki tilde de óz sózi arqalı ańlatıladı. Sonday bolsa da bul almasıq túrkmen tilinde *gaýdym alışması* al, qaraqalpaq tilinde *ózlik almasıǵı* dep atalıwı arqalı bir-birinen ózgeshelenedi. Ózlik almasıǵı (*gaýdym alışması*) qaraqalpaq hám túrkmen tillerinde qaysı da bir zattı ekinshi bir zattan bóleklep kórsetiw funksiyasın atqaradı.

Qaraqalpaq hám túrkmen tillerinde betlik almasıqları (at alışmaları) atlıqlar sıyaqlı sóz ózgeriwshi qosımtalardı qabii etiwde olardıń ózgeshelikleriniń biri esaplanadı. Men, sen, ol, biz, siz, olar betlik almasıqları eki tilde de birdey sózler menen bildiriliwi hám olardıń tartım kategoriyasın bildirip keliwi arqalı sóz ózgeriwshi qosımtalardı kabil etedi.

Sonday-aq olar seplik qosımtaların da qabil etedi. Biraq betlik almasıqları eki tilde hám seplengende olardıń quramında fonetikalıq ózgeshelikler payda boladı.

Siltew almasıqları (górkezme alışmaları) eki tilde hám belgili bir zattı kórsetip, grammatikalıq jaqtan zattı bildiretuǵın sózdiń aldında kelip anıqlawısh (áyyrgyç) xızmetinde kelgende hesh qanday qosımta qabil etpeydi.

Siltew almasıqları eki tilde hám bir zattı siltep kórsetip qosımta qabil etedi. Sonday jaǵdayda túrkmen tilinde *ol, şol, hol* almasıqlarınıń aqırǵı hám *-lar* qosımtasınıń basındaǵı *l* sesi tákirarlanıp qollanılmaydı, almasıqtıń aqırǵı *l* sesi túsiriledi yamasa *-lar şol* siltew almasıqlarınıń *o, şo, ho* variantlarına qosıladı *bu-lar, şu-lar, o-lar, şo-lar* sıyaqlı jazıladı.

Soraw almasıqları bárqulla soraw mánisinde qollanılatuǵınlıǵı sebepli túrkmen hám qaraqalpaq tillerinde birdey at menen qollanıladı.

Eki tilde de *kim* soraw almasıǵı tek insanǵa qarata qollanılatuǵın soraw bolғанlıqtan onıń atın, familiyasın, káspin hám t.b. anıqlawda qollanıladı.

Túrkmen hám qaraqalpaq tilindegi ózlik (*gaýdym*) almasıǵı bir sózdiń ústi menen jasalatuǵın bolsa da olardıń qollanılıwında grammatikalıq ózgeshelikler júzege shıǵadı. Házirgi zaman túrkmen tilinde ózlik almasıqları óz sózi hám onıń izine tiyisli tartım qosımtalarınıń qosılıwı arqalı jasaladı.

Qaraqalpaq tilindegi ózlik (*gaýdym*) almasıqları tartım, san, seplik kategoriyaları menen qollanılıp ǵáptiń quramında óziń, ózim, ózi, ózimiz, ózińiz, ózlerimiz, ózlerińiz, ózleri sıyaqlı bolıp qollanıladı.

Bul qosımtalardı eki tilde tartım hám seplikte kelgende olardıń arasında ózgeshelikler júdá az ekenligin joqarıda keltirilgen semantikalıq hám grammatikalıq ózgeshelikler haqqında berilgen maǵlıwmatlar tastıyıqlaydı.

Paydalanған ádebiyatlar dizimi:

1. Ашин Ф.Д. Указательные местоимения и их производные в азербайджанском, турецком и туркменском языках. Канд. диссертаций автореферат, М., 1958, 24 с.
2. Боржаков А. Местоимения в современном туркменском языке. Канд. диссертаций автореферат, Ашхабад, 1964, 22 с.
3. Amansaryew J. Türkmen dialektologiyasy. «Türkmenistan» neşiriyaty Aşgabat 1970.
4. Dáwletow A., Dáwletow M., Kudaybergenov M. Házirki qaraqalpaq ádebiy tili. Nókis. «Bilim» 2010.



UNDALMA VA UNING XUSUSIYATLARI

Norova Hilola G`aybulloyevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 11-maktab

Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada undalmalar va ularning xususiyatlari, gapda qo`llanish o`rni, undov so`zlar bilan birga kelishi va ifodalagan ma`nolari, tinish belgilarining qo`llanishi, undalmalarning uyushib kelishi bo`yicha ma`lumot beriladi.

Kalit so`zlar: undalma, shaxs, narsa, undash, undov so`zlar, uyushiq bo`lak, vergul,

So`zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildiradigan so`z yoki birikma undalma deyiladi. Undalma grammatik jihatdan hech bir bo`lakka bog`lanmaydi. Undalma alohida ohang bilan ajratilib aytiladi. Ega boshqa bo`laklar bilan grammatik jihatdan bo`glanadi. Undalmalar nutq jarayoniga undalgan, diqqati jalb qilingan shaxs-predmetlar bo`lgani uchun bosh kelishikda turadi. Bu jihatdan u egaga o`xshaydi, lekin undash ohangi bilan talaffuz qilinishi va kesim bilan moslashmasligi bilan egadan farq qiladi. Ega boshqa bo`laklar bilan grammatik jihatdan bo`glanadi. Ega va kesim shaxs-son, zamon, mayl qo`shimchalari yoki ohang yordamida bog`lanadi va tugal fikr hosil qiladi. Shuning uchun ega va kesim bog`lanishi so`z birikmasi emas, gap hisoblanadi. Ularning kesimi ko`pincha I va II haxs-son shakllarida bo`ladi. Gapning boshqa bo`laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaganligi sababli, uning o`rni erkin bo`ladi, lekin undalma gapning qayerida kelishiga ko`ra alohida-alohida vazifa bajaradi. Gapning boshida ham, o`rtasida ham, oxirida ham kelishi mumkin. Gap boshida kelsa, chaqiriq, murojaatni bildiradi. Gap oxirida kelsa, mehr va hurmatni ifodalaydi. So`zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb etishni maqsad qilib olsa, undalma gap boshida keladi. So`zlovchi tinglovchilarga murojaat etish orqali ularga subyektiv munosabatini ifodalashni maqsad qilib olsa, undalma gap o`rtasi va oxirida keladi. Masalan, Nechun kerak bo`ldi senga ko`z yoshim, Nechun kerak, rubob, senga shuncha g`am?! Gar shul eshitganim bo`lmasa ro`yo – Sen beshik emassan, dorsan, tabiat.

Undalmalar ba`zan jonivorlar yoki jonsiz narsalarga ham qaratiladi: Qarg`avoy, men seni yeyman. Seni unutilmas yuragim also, ey O`rta Osiyo, O`rta Osiyo.

Undalmalar gapning boshqa bo`laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaganligi uchun yozuvda doimo boshqa gap bo`laklaridan vergul bilan ajratiladi. Undalma gap boshida kelsa, undan so`ng, o`rtada kelsa, ikki tomondan, oxirida kelsa, undan oldin vergul qo`yiladi. Gap boshida kelib, kuchli undash ohangi bilan aytilsa, undalmadan so`ng undov belgisi qo`yilishi ham mumkin: Masalan, Odamlar! Eshitmadim demanglar.

Undalmalar uyushib kelishi mumkin: Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o`g`illar, singillar, sizga shu haqda murojaat qilamiz. O`ziga qarashli aniqlovchisi yoki izohlovchisi bor undalmalar yoyiq undalmalardir. Misollar: muhtaram Umidaxon, sizni tug`ilgan kuningiz bilan tabriklayman.

Undalma qatnashgan gaplar, ko`pincha, shaxsi ma`lum gaplar bo`ladi: Masalan, Muhayyo, Surayyo, Ra`no, Muqaddas, ko`zimni yashnatib kiyibsiz atlas. So`zlashish jarayonida tinglovchining diqqatini nutqingizga qaratish uchun ko`pincha uning nomini aytib yoki opa, aka, singil, tog`a, amma, xola kabi so`zlar orqali murojaat qilinadi. Ba`zan tinglovchiga murojaat ifodalovchi so`zni qo`llash orqali unga shaxsiy munosabatingizni ifodalaysiz. Masalan, Arpangizni xom o`ribmanmi, uka. Undalma alohida ohang bilan ajratib aytilsa, undalmadan keyin vergul emas, undov belgisi qo`yiladi: Aziz vatandoshlar! Bizning ajdodlarimiz hamisha uzoqni ko`zlab yashaganlar. Undalmalar tinglovchining diqqatini kuchliroq jalb etish, emotsionallikni ta`minlash, hayron qolish ma`nosini ifodalash uchun ko`pincha ey, hoy, voy kabi undovlar bilan birgalikda keladi. Bunday undovlar ko`pincha undalma oldidan qo`llanadi. Masalan, Hoy o`rtoqjon, quloq soling so`zimga. Ba`zan undalmadan so`ng, ey, ho, ov, -u (-yu) kabi undovlar ham ishlatiladi: Karimjon-u, bu yoqqa keling. Bu vaqtda undalma orqali ifodalangan shaxs yoki predmet so`zlovchidan uzoq masofada ekani ifodalanadi.

Undalmalar oldidan undov so`zlar ishlatilganda yozuvda undalma bilan undov so`zlar orasiga hech qanday tinish belgi qo`yilmaydi. Undov so`zlar undalmadan so`ng kelganda esa undov bilan undalma chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Undalmalar ko`pincha I shaxs birlikdagi egalik qo`shimchasini olib keladi. Bunday vaqtda undalma vazifasida kelayotgan tinglovchi so`zlovchiga yaqin ekanligini, erkalash, suyish ma`nolarini ifodalaydi: Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.



Ayrim hollarda undalma nutqda tushib qolib, uning o`rnida undovlar qo`llanadi: Hoy, bu yoqqa kel. Undalma o`rnida hoy kelganda tinglovchiga hurmatsizlik, mensimaslik ma`nosi ifodalanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Ona tili. 8-sinf darsligi. Cho`lpon nashriyoti. Toshkent. 2019-yil.
2. N. Erkaboyeva. O`zbek tilidan ma`ruzalar to`plami. Toshkent. 2021-yil.



HOW TO INTEGRATE STEAM IN ENGLISH LANGUAGE CLASSROOM

Sharipova Iroda Azamatovna

Navoi State Mining Institute

shi84725@gmail.com

+998(97)322-19-00

Annotation: In this thesis I explain why an integrated approach is useful, and how to integrate STEAM with your day to day teaching. The world is integrated, so teaching should be too. No learning takes place in a vacuum. Instead, students should always be using their knowledge of the world to connect ideas. This is especially true when it comes to STEAM subjects – science, technology, engineering, art and design and maths.

Key words: STEAM approach, science, technology, engineering and maths.

Most people understand how STEM (science, technology, engineering and maths) subjects are connected. But for students to develop STEM skills, we need to integrate these subjects with the arts – and vice versa. The arts is an umbrella term for things like dance, music, drama, movement, painting, drawing, crafting, sculpture, and design. And as we mentioned above, scientists, technology developers, engineers and mathematicians need to be creative to innovate. Artists also need to observe, hypothesise and experiment – which in many ways is similar to a scientific process. There are lots of benefits to creating connections across STEAM subjects and content areas in your curriculum. For example: Our brains are wired to make connections. When we connect two pieces of information in our brain, we are much more likely to understand, remember, and be able to apply this knowledge. So, combining subjects mimics real life and prepares the brain for a world in which knowledge is integrated.

How to integrate STEAM in your language classes

1. Connecting STEAM subjects

STEAM subjects should facilitate interdisciplinary learning and always go hand-in-hand. For example, if you're teaching your learners about patterns in English, you could make connections between patterns in odd and even number sequences (maths) and patterns in sound waves (science). And you could bring in patterns in buildings (engineering), patterns used for coding (technology) and dance choreographies or abstract paintings (art).

Find out how to plan a successful STEAM lesson.

2. Connecting STEAM and language

Learning objectives are a good starting point to develop STEAM connections. For example, when teaching the topic of animals and their habitats, there are lots of STEAM connections you can make. For example, you could ask students to build a habitat for an animal (engineering), decorate the habitat (art and design) and include what that animal needs to survive (science). You could then have students present their habitat creation to the rest of the class – practicing their English language presentation and speaking skills.

Depending on their proficiency level, learners can also learn language skills used by a range of STEAM professions. Take a scientist, for example. These language skills include listening to others and negotiating, reading and interpreting text or data, writing down hypotheses, labelling designs, recording data, sharing explanations, communicating ideas and solutions, and publishing results.

3. Connecting STEAM and literature

You might decide to connect a STEAM challenge to a storybook you are reading in class. There are lots of books that develop creativity, thinking skills, critical thinking, and scientific thinking.

For example, if you are reading *The Very Hungry Caterpillar* with your students, you can have them make the tiniest or biggest caterpillar they can out of different materials like bottle tops or egg cartons.

4. Connecting STEAM and Project-based learning

Project-based learning (PBL) helps learners identify a problem, generate other questions to research, think of solutions and present their ideas. And this process helps them make connections among different areas. Sounds a lot like STEAM, doesn't it? STEAM is all about discovery and problem solving. So, it's a great match for project-based learning.



References

1. Aho, A. V. (2012). Computation and computational thinking. *Computer Journal*, 55(7):832 – 835.
2. Antola Crowe, H., Brandes, K., Davison Avilés, B., Erickson, D. & Hall, D. (2013). Transdisciplinary teaching: Professionalism across cultures. *International Journal of Humanities and Social Science* 3(13).
3. Asay, L. D., & Orgill, M.K. (2010). Analysis of essential features of inquiry found in articles published in *The Science Teacher*, 1998-2007. *Journal of Science Teacher Education*, 21(1), 57-79.
4. Balsiger, P.W. (2004). Supradisciplinary research practices: history, objectives and rationale in *Futures* 36:4, 407-421.



INGLIZ TILI DARSLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Sharipova Nargiza Nasriddinovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
XTBga qarashli 12-maktab
Ingliz tili fani o`qituvchisi
Telefon: +998 90 717 17 91

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tili daslarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o`qitishning ilg`or uslublari joriy etish yo`li bilan o`sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o`qitish, shu tillarda erkin so`zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda ularning ahamiyati haqida.

Kalit so`zlar: ingliz tili, axborot-kommunikatsiya, pedagogik texnologiya, pedagogik texnologiya, AKT.

Hozirgi kunning asosiy talablaridan biri chet tilini mukammal o`rganishdir. Ayniqsa, ingliz tiliga e`tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. O`zbekiston Respublikasi ta`lim tizimida ingliz tili o`qitish, o`rgatish ilmiy yondashuv asosida, davr talablariga to`la javob bera oladigan yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar joriy etilishi asosida yangi sifat darajasiga ko`tarilib bormoqda. Bunday texnologiyalar ta`lim tizimida o`z aksini topishi chet tili o`qitish saviyasini o`stiradi. Chet tilida, jumladan, ingliz tilida mutolaa qilish malakalarini shakllantirishga yordam beradi. Ingliz tilida munosabatlar shartlari nutq, qo`shimcha kasbiy matnlar o`rganishning ko`plab turlarini bilish davr talabi ekanligini ko`rsatib beradi. Boshqa tillar mohiyatini kamsitmagan holda, ayniqsa, ingliz tilida muloqot qilishda, nutqini tushunish mutolaa qilish va yozish, nutqiy faoliyat amaliyotida, ixtisoslik, mutaxassisligi bo`yicha keng tarmoqli va kasbiy adabiyotlarni o`qishda ularga tushuntirish annotatsiyalar, tezislari, shuningdek, yozma axborot almashish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati yaqqol namoyon bo`ladi va aniqlanadi. Bunday ishlar natijasida o`quvchilar olgan bilimlarini amalda qo`llash, o`z bilim doiralarini kengaytirish hamda izlanish jarayonida qatnashish uchun ularda imkoniyat paydo bo`ladi. Eng quvonarli tomoni til o`rganish bilan bir qatorda, o`quvchilarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga qiziqishlari ortadi.

Davrimizning o`ziga xos xususiyatlaridan biri bo`lgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan uning imkonoyatlaridan foydalanib, ta`lim jarayoniga yangicha yondashish va uni tashkil etishga alohida e`tibor qaratilmoqda. XXI asr yuksak texnologiyalari asri bo`lib, zamonaviy yoshlarimiz nafaqat davr ruhiga monand, balki elektron olamdagi taraqqiyotga muvofiq qadam tashlamoqdalar.

Shu boisdan ham, yosh avlodga ta`lim jarayoniga boshqacha yondashishni talab etmoqda. Darslarda o`qituvchining o`rni ham o`zgarib bormoqda. O`qituvchi endilikda asosan yo`naltiruvchi vazifasini o`tamoqda. Zamon bilan hamnafas qadam tashlashni maqsad qilgan o`qituvchilardarsning har qanday qismini AKT orqali jonlantirishga tayyor bo`lishlarini davr talab etmoqda.

Ta`lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ayniqsa, chet tillarini o`qitish va o`rganishga tobora katta ahamiyatga molik bo`lib bormoqda. Yangi axborot texnologiyalari chet tillarini o`qitishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi, fan bo`yicha sifatli bilim olish va ta`lim samaradorligini oshirishda muhim o`rin tutadi. Ma`lumki, davr talabiga monand dars o`tishda mazkur fandan o`tiladigan birorta ham mashg`ulot o`qituvchi yoki o`quvchilarning aqdimotisiz o`tmasligi lozim.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarorida "Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o`qitishning ilg`or uslublari joriy etish yo`li bilan, o`sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o`qitish, shu tillarda erkin so`zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon taraqqiyoti yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko`lamda yo`nalishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish" ishlari va buning uchun bir qator muhim vazifalarni amalga oshirish



zarurligi ko`rsatilgan.

Mazkur hujjatda 2013-2014 o`quv yilidan boshlaboq umumiy o`rta ta`lim maktablarining birinchi sinflaridan chet tillari avval o`yin tarzida keyinchalik asosiy ta`lim fani sifatida AKT vositalaridan foydalangan holda o`qitish belgilab berilgan. Ushbu muhim qarorga muvofiq bugun, ayniqsa, chet tillarini o`rganish darslariga yanada chuqurroq nazar tashlandi. Jahon maydonida yurt sha`nini munisib himoya qilish uchun yoshlarimiz, avvalo o`zining xorijiy tengdoshlari bilan raqobatlasha olishimiz lozim.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mahmudova. Pedagogika. O`quv darslik.
2. D. Dehkanova. Ingliz tili darslarida interfaol o`yinlar. O`quv-uslubiy qo`llanma.2013-yil.
3. Internet ma`lumotlari.



XALQ O'YINLARINING NOMLANISHING TAHLILI

Hamidova Nigora Urinovna

Navoi Davlat Konchilik Instituti

“O‘zbek va chet tillar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

nigora.khamidova.1969@mail.ru

+998 91 3375434

Annatasiya: Xalq o‘yinlarining nomlari har doim ko‘proq ma‘noni anglatadi va shuning uchun ma‘lum bir ma‘noga ega bo‘ladi. Shu sababli bizning tushunchamizda bu o‘rinli. Maqolada xalq o‘yinlarining nomlari uning qanday o‘yin ekanligini, o‘tmishi, kelajagi va buguni bilan deyarli bog‘liq ekanligi ko‘rinadi.

Kalit so‘z: onomastika, xalq o‘yinlari, ta‘lim, milliy, rivojlanish

Xalq va an‘anaviy o‘yinlar oylar va quyosh sikllari va yil davomida qishloq xo‘jaligi tadbirlari bilan chegaralangan an‘anaviy milliy taqvim yoki an‘anaviy bayramlarning marosimlari va bayramlarining bir qismi sifatida o‘tkaziladi. Shu sababli, ular o‘xshash landshaft va iqlim zonalarida istiqomat qiluvchi ko‘pchilik odamlar uchun bir xil vaqt oralig‘iga tushadi. Xuddi shu sababga ko‘ra, an‘anaviy o‘yinlar sanasini va nomini ko‘chirish ma‘nosiz.

O‘yin qoidalariga katta ma‘rifiy ahamiyat beriladi. Ular o‘yinning butun yo‘nalishini belgilab beradi, ishtirokchilarning xatti-harakatlari va xatti-harakatlarini, o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi, iroda va xarakterni tarbiyalashda yordam beradi. Shuningdek, ular faol fikrlashni rag‘batlantiradi, ongni kengaytirishga yordam beradi, atrofdagi dunyo haqidagi fikrlarning ravshanligini ta‘minlaydi va barcha aqliy jarayonlarni takomillashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, xalq o‘yinlarida onomastik nomlarni o‘rganish mavzusi bu boshqa ob‘ektlar orasida o‘zi nomlagan ob‘ektga ajratib ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Xalq o‘yinlarining onomastik nomlarining tasnifi ikki belgi - etnik va taqvimga asoslanadi. O‘yinlarning onomastik nomlarining etnik holati marosim va semiotik xususiyatlar bilan belgilanadi. O‘yinlarning taqvim holati ular o‘tkaziladigan milliy bayramlar bilan belgilanadi. Va bu ularning sport nomlarida tubdan farqli ekanligini bildiradi. Xalq o‘yinlari nomlari dasturi taqvim va etnik holatlarga qarab tuzilgan.

Xalq o‘yinlarini nomlanish amaliyoti odatiy huquq printsiplariga - an‘anaviy mezonlar asosida natijalarni tarixan ishlab chiqilgan usullariga asoslanadi. Bundan farqli o‘laroq, xalq o‘yinlarining onomastik nomlanishi deb oldin nomlangan o‘yinlar zamonaviy qonunlarda raqib jarayonining onomastik nomlanishi o‘ziga xosligida ifodalangan protsessual jihatlarga egadir.

Onomastik nomlanish nazariyasi kontekstida an‘anaviy o‘yinlarning tipologiyasi etnik yo‘nalish bo‘yicha qurilgan. Bundan tashqari, mavjud xalq o‘yinlari tasnifiga integratsiyalashishni osonlashtirish uchun tipologiya shuningdek toifalar bo‘yicha nomlanish taqdim etiladigan musobaqalar turlari bo‘yicha qurilgan.

Adabiyotlar:

1. Levashov E.A. Geografik nomlardan olingan sifatlar lug‘ati. - M., 1991 yil
2. Murzaev E.M. Ommabop geografik atamalar lug‘ati. - M., 1991 yil.
3. Kilasov A.V. An‘anaviy o‘yinlar va etnosport: umumiy tasniflash // Jismoniy madaniyat nazariyasi va amaliyoti, 2014 yil.
4. Staltman V.E. Onomastik leksikografiya. - L.: Fan, 1991 yil.



INGLIZ TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Xamroyeva Shaxzoda Baxodirovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 12-maktab
Ingliz tili fani o'qituvchisi
Telefon: +998 91 335 63 97

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tili fanini o'rganishda turli pedagogik, va innovatsion texnologiyalar, o'quvchilarning yoshiga mos interfaol va didaktik o'yinlardan foydalanish va ularning afzallik tomonlari haqida so'z yuritiladi. Ingliz tili darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishda o'qituvchining vazifasi – ingliz tilini o'rganishga undash. Turli o'yinlarga bo'lgan qiziqish uyg'otish sababi tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, didaktik o'yinlar, metod, interfaol usullar, ingliz tili, innovatsion texnologiya.

Hozirgi kunda ingliz tili o'rganish eng dolzarb vazifalardan biridir. Maktabgacha ta'limdan eng so'nggi ta'limgacha ingliz tilini o'rganishga talab kundan kun rivojlanib bormoqda va juda ko'p imkoniyatlar yaratilmoqda. Har qanday chet tilini o'rganishdan maqsado'sha tilda bimalol muloqot qilishdir. Chet tillarini o'rgatish va o'rganish mukammal jarayon hisoblanadi. U kishidan muntazam izlanishni, mehnatni va o'z ustida ishlashni talab qiladi. Ingliz tilini o'rganish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga interfaol metodlar, didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. Bu jarayon darsni qiziqarli va sevimli bo'lishini ta'minlaydi. Interfaol o'yinlarni o'rganuvchilar o'zlarini ancha erkin tutishlarini hatto uyatchan o'quvchilarni ham ushbu o'yinlarda qatnashishga undaydi. Interfaol va o'yinlarni ayniqsa, grammatika va so'z boyligini orttirish uchun qo'llash samaralidir. Ammo bu o'yinlarni qo'llashdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga o'yindan ko'zlangan maqsadni o'yin qoidalarni aniq tushuntirishi va o'tilayotgan mavzu bilan chambarchas bog'lishi kerak. Ushbu uslubiy tavsiyalar to'plamiga kirgan interfaol o'yinlar maktabgacha ta'lim yoki maktab o'quvchilariga o'yinlar orqali dars o'tish og'zaki nutq orali foydali manba bo'lib xizmat qiladi, o'yinlarni qo'llash bo'yicha batafsil ko'rsatmalar berilgan. Interfaol o'yinlar, asosan, CEFR asosida o'qitish, ya'ni o'qitishning Yevropa standartlarning darajalari A1 – A2 talabiga mo'ljallangan. Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilari o'yinqaroq bo'lishadi. Va yana rasmlar orqali ham ularni tasavvur etish orqali ham o'rgatish mumkin.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ta'lim jarayonalari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish;
- Ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;
- Ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash.

Ingliz tili darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishda o'qituvchining vazifasi – ingliz tilini o'rganishga undash. Turli o'yinlarga bo'lgan qiziqish uyg'otish sababi, birinchi navbatda, an'anaviy shakllar va an'anaviy o'qitish usullaridan voz kechish. Shuni ham ta'kidlash kerakki, yetarli darajada yuqori motivatsiyani davom ettirishda pasayish kuzatiladi

Zanjir o'yini.

Bu o'yindan maqsad – xotirani oshirish va tekshirish. O'yinda guruh bo'lib o'ynaladi va boshlanishida bitta mavzu doirasidan cheklangan bo'lishi kerak. Misol uchun "Animals" bunda birinchi o'quvchi bir so'zni aytadi va misol uchun "cow" deydi, boshqa o'quvchi birinchi o'quvchining so'zini takrorlab "cow" va o'zining yangi so'zini, ya'ni "pig" so'zini aytish bilan davom etadi. O'yinda kimning yodidan ko'tarilib to'xtab qolsa, shu ishtirokchi o'yinni tark etadi. Guruhda 10 yoki undan ortiq kishilar bo'lsa, so'zlar miqdori ko'payadi va qiziqarli bo'ladi. O'yin orqali xotirani tekshirish, qay darajada ekanligini bilib olib uni o'stirish mumkin.

Darsda qo'llanadigan didaktik o'yinlarni bolalarning saviyasi va yoshiga qarab osonlashtirishimiz va qiyinlashtirishimiz mumkin. Ushbu interfaol o'yinlarning maqsadi turlicha bo'lib, bu o'yinlar orqali diqqatni jamlash, so'z boyligini oshirish, tezkorlik, aqllilik, ziyraklik, asosiysi esa darsni qiziqarli tarzda o'zlashtirib, yodda saqlab qolish mumkin. Shuning uchun ham har bir ingliz tili



fani o`qituvchisidan tashabbuskorlik, talabchanlik talab etiladi. Har tomonlama yetuk, chet tilini yaxshi biladigan o`quvchi Vatanimizning ravnaqi hisoblanadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Mahmudova. Pedagogika. O`quv darslik.
2. D. Dehkanova. Ingliz tili darslarida interfaol o`yinlar. O`quv-uslubiy qo`llanma.2013-yil.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH

Holikulova Feruza Xasanovna

Navoiy davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich talim kafedrası o'qituvchisi

Тел: 90-501-22-88; email: feruza.kholikulova.85mail.ru

Boshlang'ich ta'limda yuqori sifat darajasiga ega bo'lgan o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi ta'lim modelida tavsiya qilinayotgan "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy layoqatlarini rivojlantirish; ma'naviy-axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalash; bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda rang-barang faoliyat turlarini amalga oshirish tajribasini o'zlashtirish; boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xosliklarini asrab-avaylash va qo'llab-quvvatlash"¹ talablari bo'yicha asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan o'quv materiallaridan tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikma-malakalarini rivojlantirishga o'tishda ona tili ta'lim jarayonida o'quvchilarning tafakkurini shakllantirish bilan bog'liq o'quv-biluv faoliyati muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarning ona tili ta'limida mashq ustida ishlash 1-sinfdan boshlanadi va u o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda eng ko'p qo'llanadigan maqbul usullardandir.

1-sinf "Ona tili" darsligidagi² topshiriqlarning aksariyati grammatik tushunchalar asosida adabiy talaffuz ko'nikmalarini tarkib toptirish, so'z boyligini oshirish, imloviy savodxonlikni shakllantirish, fikrini gap qoliplarini asosida to'g'ri ifodalashga qaratilgandir. Darslik dastur asosida o'quvchilarga boshlang'ich grammatik bilim berish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi hisobga olingan va uni rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Darslikdagi rasmi mashqlar o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish bilan birgalikda ularning yozma nutqini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Grammatikaga oid mashqlarda o'quvchilar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Grammatikani o'rganish o'quvchilarning nutqiy malakalarni egallashlarida katta yordam beradi.

"Nutq.Gap" bo'limidagi 150-155-mashqlar bevosita nutq va matnning xususiyatlar haqidagi tushunchalarni amaliy shakllantirishga qaratilgan. Bunda o'quvchilarga "nutq va matn mazmunan bog'langan gaplardan tuzilishini"(179-mashq), "nutq (hikoya) biror narsa haqida bo'lishi"(180-, 189-mashq), "og'zaki nutq yozma shaklda ifoda etilishi", "nutqning mzmuniga mos sarlavha qo'yilishi"(166-mashq), "nutqda gaplar mazmunan bog'lanishi va mazmunga mos tartibda yozilishi" amaliy o'rgatiladi. "Gap" bo'limida mazmunan bog'langan gaplar nutqni hosil qilishini, ertak, hikoya gaplardan tuzilishi va bu gaplar ifoda maqsadiga ko'ra har xil bo'lishi, 163-mashq o'quvchilarning ijodiy fikrlashiga, 168-mashq matndagi asosiy fikrni aniqlashga qaratilgan.

4-sinf "Ona tili"³ darsligining yangi nashrida og'zaki va yozma nutqni rivojlantiruvchi mashqlar barcha bo'limlarda berilgan. "Takrorlash" darsida o'quvchilar 1-mashq matnini audio orqali eshitib, "Matn nima haqida ekanini ayting" topshirig'ini bajaradilar. Matn mazmunini og'zaki hikoyalab beradilar. 2-mashq topshiriqlari asosida matndagi asosiy fikrni (Ibn Sino haqidagi gaplarni ko'chiring. Bilimlarni qanday egallayotganingiz haqida 2-3 ta gap tuzing va yozing.) topadilar hamda o'z o'quv faoliyatlari haqida ma'lumot yozadilar.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish yuzasidan ijodiy bayon yozish 3-4-sinflarda rejalashtirilsa-da, unga tayyorgarlik oldindan boshlanadi. Masalan, birinchi sinfnig ikkinchi yarmidan "Bizning oila", "Bizning sinf" "Bizning ko'cha", "Bizning mahalla", "Bizning maktab", "Ona qishlog'im", "Mening do'stim", "Men sevgan multfilm", "Bozor", "Dadam ishdan kelsalar", "Kim bo'lsam ekan", "Men onamga yordamchi" kabi turli mavzularda tarqatmalar tayyorlab, dars mavzularidan kelib chiqqan holda, bir nechta gapdan iborat matn tuzish topshirig'ini berish o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilarning o'z-o'zini mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida namoyon qiluvchi ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Zero, uzluksiz ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuv asosidagi o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi o'z-o'zini doimiy ravishda jismoniy, ma'naviy-axloqiy, ruhiy, estetik va intellektual rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o'qib-o'rganish, bilim va tajribasini muntazam oshira borish, o'z xatti-harakatini adekvat baholash, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadiki, ayni shu sifatlar boshlang'ich



sinf o'quvchilarining bayon yozish bilan bog'liq ijodiy faoliyati takomilida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R.safarova. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga tadbiiq etiladigan yangi yondashuvlar/ Boshlang'ich ta'limni modernizatsiyalsh orqali o'quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish.- Toshkent: "Reliable print", 2016, 95-bet.
2. T.G'afforova, Sh. Ergashev, X. G'ulomova. Ona tili. 1-sinf uchun darslik.- T.: Sharq, 2019.
3. R.Ikromova, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, D.Shodmonqulova. Ona tili, 4-sinf uchun darslik.- T.: O'qituvchi, 2020.



THE IMPORTANCE OF TECHNOLOGY IN DESIGNING TEACHING MATERIALS.

Djabborova Nodira Axmadjonovna

Master of Arts in Teaching English as a Second Language
The assistant of the department "Linguistics and Literature"
Andijan Machine Building Institute
nodira.djabbarova@bk.ru

Usmonov Mashxurbek Zafarbek o'gli

Student of Machine building institute
Faculty: Management
City: Andijan

Annotation. This article examines the significance of technological tools in developing teaching materials as well as their advantages and drawbacks in language teaching. Researchers explore technological innovation and the world of design that leads to enhance people's lives in different fields of life.

Key words: Technological tools, educational software, designing materials, digital literacies, technology-based materials, technology- assisted instructions.

Introduction.

Educational software is an essential tool for teachers to integrate information technology into classroom instruction. According to some experts, the instructional materials, that conducted using the system seems to be more systematic and coherent, broader and deeper information can be provided for learning and teaching the language.

According to Garry Motteram (2011) when designing materials using technology, it is useful to have a framework from which to judge the potential value of an activity before devoting time and effort to its implementation. Creating technology-based materials for teaching the target language always brings lots of advantages.

I mostly apply CALL and MALL to my lessons. I frequently address to Google Docs, You Tube, Online quiz, and electronic books that match to my students' level and age. Additionally, I implement Google slides and short videos to involve learners' attention to learning process and encourage them to acquire English with great interest.

Nicky Hockly (2015) noted that, "New technologies have transformed the way we live and communicate, and most educators are in agreement that new technologies require new skills". It is not easy to adopt to new things just after first attempt but practicing constantly leads to achieve the intended goal.

Belshaw (2011) mentioned eight key element that characterize digital literacies: cultural, cognitive, constructive, communicative, creative and so on. To acquire this type of skills require time and knowledge.

I suppose that, there are several benefits of technology-based materials:

- New skills
- Engaging and productive
- Saves time and energy
- Full of information
- Motivate students to learn the target language.

Difficulties and drawbacks

- Lack of experience
- Poor internet connection
- Feeling anxiety while making video presentation.

However, these challenges leads to better results as improving digital literacy, developing xxi century computer-based skills, implementing new methods of teaching.

Suggestions

I suppose learning outcomes will reach its pick by applying technology- assisted instructions. Using technology-based activities in teaching and learning languages will lead to increase the effectiveness of learning and educational outcomes. Educators could easily evaluate the capacity of technological tools that assist them to reflect on their pedagogy.



Reference:

1. Diana Laurillard (2018) Using technology to develop teachers as designers of TEL: evaluating the Learning Designer.
2. Gary Motteram (2011) Developing language-learning materials with technology.
3. Kuo EN Chang (2006) Web – based Tools for Designing and Developing Teaching Materials for integration of Information Technology into Instruction.
4. Nick Hockly (2012) Digital literacies.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(7-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2021

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000